

## METAKOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING O‘Z-‘ZINI BOSHQARISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH: PSIXOPEDAGOGIK ASOSLAR VA TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

**Matqosimov Lutfullo Xayrullayevich**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyasini shakllantirishda metakognitiv yondashuvning ahamiyati tahlil qilinadi. Metakognitsiya — o‘z fikrlash faoliyatini anglash va boshqarish orqali ta’lim jarayoniga ongli yondashuvni ta’minlaydi. O‘z-o‘zini boshqarish esa shaxsning maqsadga yo‘naltirilgan, mas’uliyatli va reflektiv faoliyat yuritishini ifodalaydi. Maqolada bu ikki komponentning uzviy bog‘liqligi, ularni integratsiyalashgan holda rivojlantirish yo‘llari va bu yo‘lda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan zamonaviy ta’lim texnologiyalari yoritilgan. Psixopedagogik nazariyalar asosida metakognitiv rivojlanishga yo‘naltirilgan dars dizayni, o‘z-o‘zini baholash, refleksiya, strategik rejalashtirish kabi vositalarning amaliy imkoniyatlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** metakognitsiya, o‘z-o‘zini boshqarish, refleksiya, psixopedagogika, o‘quv kompetensiyasi, ta’lim texnologiyalari, shaxsiy rivojlanish.

Zamonaviy ta’lim jarayoni o‘quvchining faqat bilim egallovchi emas, balki o‘zini anglovchi, nazorat qiluvchi va boshqaruvchi shaxs sifatida shakllanishini talab qilmoqda. Shu bois o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kun pedagogikasining asosiy vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu jarayonda metakognitiv yondashuv markaziy rol o‘ynaydi. Metakognitiv fikrlash o‘quvchiga o‘z bilimini kuzatish, o‘rganish jarayonini boshqarish, mustaqil qarorlar qabul qilish va samarali strategiyalarni qo‘llash imkonini beradi. Mazkur maqola shu ikki murakkab pedagogik tushuncha — metakognitsiya va o‘zini boshqarish kompetensiyasini birlashtirish orqali o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish yo‘llarini tahlil etishga bag‘ishlangan

Metakognitiv fikrlash: tushunchasi va asoslari

Metakognitsiya — bu o‘z bilimi haqida bilish, ya’ni o‘quvchining o‘z fikrlash jarayonini tahlil qila olishi, qayerda xatoga yo‘l qo‘yanini anglash, strategiyalarini tanlab, o‘zgartira olishi. Bu jarayon ikki asosiy komponentni o‘z ichiga oladi: metakognitiv bilim (ya’ni shaxsning o‘z o‘rganish uslublari haqidagi tushunchalari) va metakognitiv nazorat (ya’ni o‘rganish jarayonini kuzatish va tahlil qilish faoliyati). Metakognitiv fikrlash o‘quvchiga mustaqil, reflektiv, chuqr o‘ylovchi bo‘lish imkonini beradi. Ta’limda bu ko‘nikmani shakllantirish o‘quv dasturlarining tuzilishi, topshiriqlarning shakli, o‘qituvchining savollari va muloqot uslublariga bevosita bog‘liq

O‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyasi: mazmuni va tarkibi.

Bu kompetensiya o‘z vaqtini rejalashtirish, maqsad qo‘yish, unga erishish uchun harakat rejasini ishlab chiqish, o‘zini baholash, muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik

sabablari ustida ishlashni o‘z ichiga oladi. Ushbu ko‘nikma o‘quvchining o‘z faoliyatini mustaqil boshqarish qobiliyatini ifodalaydi. U faqat bilim bilan emas, balki emotsiunal barqarorlik, irodaviy kuch, tashabbus va o‘z-o‘zini anglash bilan chambarchas bog‘liq.

#### Psixopedagogik asoslar.

Shaxsiy faoliyatni anglashga asoslangan pedagogik yondashuvlar (shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, konstruktivizm, faoliyatga asoslangan o‘rgatish) metakognitsiya va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarining shakllanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Lev Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan yaqin rivojlanish zonasi tushunchasi, A. Banduraning o‘z-o‘zini boshqaruvchi shaxs modeli, J. Flavellning metakognitsiya nazariyasi — bu boradagi ilmiy asoslarni tashkil etadi. Mazkur nazariyalar asosida qurilgan dars jarayoni o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlaydi va uni fikrlashga undaydi

#### Ta’lim texnologiyalari va metodikalar

- Refleksiya daftarlari — o‘quvchi har bir darsdan so‘ng o‘z o‘rganish jarayoni haqida yozadi
- Strategik rejalshtirish jadvallari — maqsad qo‘yish, reja tuzish va natijani baholash vositasи
- O‘zini baholash rubrikalari — o‘quvchi o‘z faoliyatini mezon asosida tahlil qiladi
- “Fikrlash xaritalari” — murakkab fikrlarni vizual ko‘rinishga keltirish orqali metakognitsiyani faollashtiradi
- Savol-javob texnikasi — o‘qituvchi o‘quvchini ko‘proq o‘ylashga undovchi savollar beradi
- Gruppaviy muhokamalar — o‘z fikrini ifodalash va boshqalarni tinglash orqali refleksiya kuchayadi.

### XULOSA

Metakognitiv yondashuv va o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyasi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘quvchini faqat bilim oluvchiga emas, balki o‘z o‘qishiga rahbarlik qiluvchi faol subyektga aylantiradi. Psixopedagogik asoslar bilan uyg‘unlashtirilgan ta’lim texnologiyalari orqali o‘quvchida nafaqat bilish, balki o‘zini anglash, boshqarish va ijtimoiy jihatdan faol bo‘lishga tayyor ko‘nikmalar shakllanadi. Ushbu yondashuv raqobatbardosh, mas’uliyatli va ongli shaxs tarbiyasining kalitidir

### ADABIYOTLAR.

1. „Eurydice“. 9-oktabr 2016-yilda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 25-mart 2017-yil.

2.↑ Stephens. „Preschool Report“. ChildCareIntro.com (28-noyabr 2013-yil). 12-dekabr 2013-yilda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 9-dekabr 2013-yil.

3.↑ Turner, Martin; Rack, John Paul (2004). The study of dyslexia. Birkhäuser, ISBN 978-0-306-48531-2